



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Hayitova Shaxlo Shavkatovnaning
“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun
“Hozirgi zamon ingliz tilida gaplarning strukturasida
bog`lovchilarning (Conjunctions) sintaktik-semantik
xususiyatlari”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : M.Omonova

“Himoyaga tavsiya etildi”
Roman German filologiyasi fakulteti
dekani _____ dots. D. Jo`rayev
“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi shahri, 2012 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	2-16
--------------------	-------------

I BOB. Soʻz turkumlari klassifikatsiyalarining asosiy prinsiplari

1.1. Soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot.....	17-21
1.2. Bogʻlovchilar haqida umumiy maʼlumot	22-34
1.3. Bogʻlovchilarning gapdagi vazifasiga koʻra turlari.....	35-41

II BOB. Bogʻlovchilarning gap strukturasiidagi sintaktik-semantik bogʻlanishlari

2.1. Yadroviy predikativ bogʻlanish	
2.2. Noyadroviy predikativ bogʻlanish.....	57-59
2.3. Subordinativ bogʻlanish	60-63
2.4. Koordinativ bogʻlanish	64

III BOB. Bogʻlovchilarning sintaktik-semantik tahlili

3.1 Negativ sintaksemalarni ifodalovchi bogʻlovchilari.....	
3.2 Kauzal sintaksemalarni ifodalovchi bogʻlovchilari.....	
3.3 Lokativ sintaksemalarni ifodalovchi bogʻlovchilari.....	
3.4 Temporal sintaksemalarni ifodalovchi bogʻlovchilari.....	
3.5 Relyativ sintaksemalarni ifodalovchi bogʻlovchilari.....	

XULOSA

Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar.....	71
Foydalanilgan badiiy adabiyotlar va lugʻatlar.....	72

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va yuqori malakali intellektual barkamol ablodni tarbiyalashda davlat siyosatining o'rnini va rolini xalqaro jamoatchilikning o'rganishi va tanishishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan "Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili" mavzusidagi Xalqaro konferensiyaning ochilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov so'zlagan nutqlarida ta'kidlaganlaridek, "...oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz -- mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz ham, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham --- bularning barcha-barchasi, avvalombor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"¹.

Barkamol avlod tarbiyasi, intellektual salohiyatini yuksaltirish vazifasi so'zsiz, ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu, albatta, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo'lgan tilshunoslikka ham oiddir. Mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining tizimi, muloqot qoidalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zotan, zamonaviy tilshunoslik uchun lisoniy hodisalarni sintetik yondashuv asosida, ularning ko'p jihatli xususiyatlarini tizimli ravishda, nutqiy muloqot sharoitida bevosita va bilvosita namoyon bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillarini inobatga olgan holda tadqiq qilish amaliyoti keng o'rin egallamoqda. Til birliklarining bunday keng qamrovli o'rganilishi ularning tub mohiyatini batafsil aniqlash bilan bir qatorda, har bir hodisaning alohida jihatlari, tizimda tutgan o'ziga xos o'rnini belgilash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasi strukturasiga asosan tillar o'z Grammatik strukturasiga ko'ra sintetik va analitik bo'ladi. Biroq bu grammatik jihatlar hamma tillar uchun xos emas. Har bir tilning o'z grammatik xususiyatlari va funksiyalari mavjud.

Tilshunos olimlarning nuqtai nazarlariga ko'ra, so'z turkumlari va ularning gapdagi vazifalari turlichadir. So'z turkumlari bir biridan ma'no va funksiyalari bilan farq qiladi. Shu sababli mazkur Bitiruv Malakaviy ishimda yordamchi so'z turkumi bo'lgan bog'lovchilarni prof. A.M.Muxin nazariyalariga asosan ilmiy tadqiqot qilishga urinib ko'rdik. Chunki bog'lovchilarga oid har xil muammolar, asosan ularning gapdagi sintaktik-semantik funksiyalari turlichadir. O'zbek, rus va ingliz lingvist olimlarining bog'lovchilar haqida turli bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bildirishgan.

¹ Karimov I.A. Bilimli va intellektual barkamol ablodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili. –T., "Xalq so'zi", 18.02.2012.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi bog'lovchilarni sintaktik komponent sifatida prof.A.M.Muxin nazariyalariga asoslanib ularni gapdagi ishtirokiga ko'ra sintaktik-semantik va paradigmatic analiz qilish. Chunki ular gap strukturasida sintaktik-semantik jihatdan jihatdan turlicha komponentlar, aniqrog'i subordinativ (tobe) komponentni shakllantiradilar. Bog'lovchilarni sintetik-semantik analiz qilishda ingliz yozuvchilarining asl asarlaridan foydalanildi. Ularning gaplarda turli sintaktik semantik ma'nolarda kelganligini isbotlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida bog'lovchilar va ularning sintaktik-semantik tahlili prof.A.M.Muxin sintaktik-semantik analiziga asoslangan holda olingan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati. Yuqorida aytib o'tilganidek, bog'lovchilarning sintaktik-semantik tahlili prof.A.M.Muxin sintaktik-semantik analiziga asoslangan holda, ularning gap strukturasida turli sintaktik bog'lanishlari va sintaktik-semantik tahlili natijasi o'laroq, turli semantik ma'nolar kasb etishi BMIning ilmiyligini tashkil etadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy xulosalari ingliz tilining nazariy va amaliy grammatikasi fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, bog'lovchili birikmalar mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammatikasidan shu mavzuda amaliy mashg'ulotlar o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, ilmiyligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

I Bobda hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlari va so'z turkumlari klassifikatsiyalarining asosiy prinsiplari va bog'lovchilar haqida umumiy ma'lumot bayon etilgan.

So'z turkumlarining mohiyati, turlarga oid tilshunos olimlarning nazariy fikrlari va qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari bog'lovchilar haqida va ularning strukturasiga ko'ra turlari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan

II Bobda hozirgi zamon ingliz tilida bog'lovchilarning sintaktik bog'lanishlari haqida badiiy asarlardan olingan misollar oqrali ularning yadroviy predikativ, noyadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ bog'lanishlari ko'rib chiqilgan.

III Bobda bog'lovchilarning sintaktik-semantik tahliliga asosan ularning negative, lokativ, temporal, kauzal, relyativ kabi sintaktik-semantik belgilari bayon etilgan bo'lib, mazkur sintaktik-semantik belgilar lingvistik eksperiment metodlari orqali aniqlangan.

Tadqiqot natijasida hosil qilingan fikrlar xulosada umumiyashtirilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi betdan iborat bo'lib, ishning oxirida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar, lug'atlar ro'yxati, ilova, shuningdek kerakli qisqartmalar berilgan.

I BOB. So'z turkumlari klassifikatsiyalarining asosiy prinsiplari

1.1 So'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot

So'z turkumlari muammosi ham umumiy lingvistika nazariyasi, ham alohida tillar analizida katta qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ingliz tilida qaysi so'z turkumi muhim o'rinda turishi haqida bir necha umumiy masalalarni ko'rib chiqamiz.²

So'z turkumi termini (rus, nemis, fransuz va boshqa tillarda ham shu nom bilan ataladi) juda mustahkam, hammaga ma'lum termin bo'lsada, bizning fikrimizcha bu juda to'g'ri emas. Masalan, fe'l boshqa so'zlardan faqat zamon kategoriyasi bor bo'lgani uchun farq qiladi. "live" so'zining o'tgan zamon shakli faqat "lived" bo'ladi degan javob bo'lishi muqarrar, lekin shu o'rinda "city" yoki "back" so'zining o'tgan zamon shakli nima bo'ladi deyish noo'rin, noto'g'ri savol bo'ladi. Chunki zamon kategoriyasi fe'lni boshqa so'zlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ingliz tilidagi barcha so'zlar anglatgan leksik-grammatik ma'nosi, morfologik formasi va ozaro sintaktik aloqaga kirishishi hamda gapdagi vazifasiga ko'ra malum guruhlariga bo'linib, ular grammatikada so'z turkumlari deb yuritiladi. Ingliz tilidagi so'z turkumlarini turli olimlar turlicha talqin qiladilar. Masalan, Dioniskiy o'zidan avvalgi olimlarning fikriga tayanib, so'zlarni quyidagi sakkizta turkumga ajratadi³:

- | | |
|--------------|---------------|
| 1.Ot, | 5.Olmosh, |
| 2.Fe'l, | 6.Predlog, |
| 3.Sifatdosh, | 7.Ravish, |
| 4.Artikl, | 8.Bog'lovchi. |

² Ilyish V. "The Structure of Modern English",

³ Bo'ronov J.B. "Ingliz tili va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi". T., 1973

Tilshunoslar Dioniskiy va Diskolning kamchiliklarini ularning izdoshlari, ya'ni stoiklar to'ldirishdi. Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yo'lida stiklar tomondan quyidagi ishlar qilindi:

1. So'z turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi.
2. Tilda ifodolovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi ko'rsatildi.
3. Ot kategoriyasiga sredniy rod tushunchasi kiritildi.

So'z turkumlari haqidagi muammo umumiy tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng ko'p munozarali muammolardan biridir.

So'z turkumlarini tasnif qilish uch turdagi prinsipga asoslanadi:

- 1) ma'no
- 2) shakl
- 3) funksiya⁴

1) Ma'no deganda biz ma'lum bir guruhga kiruvchi hamma so'zlarning umumiy ma'nosini va mohiyatini tushunamiz. Masalan, "Ot" so'z turkumiga to'xtaladigan bo'lsak, "ot" so'z turkumining so'z sifatidagi struktural ma'nosini tashkil etadi. Xuddi shunday fe'l so'z turkumining so'z sifatidagi ma'nosi ish harakatni bildiradi.

2) So'z turkumining shakli deganda biror bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning morfologik xarakteristikasi nazarda tutiladi. Shunday qilib "ot" so'z turkumi son kategoriyasi (birlik, ko'plik) bilan xarakterlansa, fe'l so'z turkumi zamon, mayl kabi kategoriyalar bilan xarakterlanadi.

Predlog bog'lovchi kabi bir qator so'zlarning shakli o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi.

3) Funksiya deganda biz so'zning sintaktik xususiyatini tushunamiz, bu esa ikkiga bo'linadi:

- 1) uning boshqa so'zlar bilan birikishi
- 2) uning gapdagi vazifasi.

Birinchisi frazalar (so'z birikmasi), ikkinchisi gap strukturasiga bog'liq. Masalan, 1) write letters yoki write quickly. 2) fe'lning gap strukturasidagi kesim vazifasi.

Masalan, misol tariqasida fe'l so'z turkumiga oid so'zni olib qaraydigan bo'lsak, "fe'l" "ot" so'z turkumi bilan birikadi: "write letters", "discuss questions" va shu bilan birga fe'l so'z turkumi ravish bilan ham birikadi: "write quickly", "discuss seriously". Fe'l so'z turkumining gapdagi sintaktik funksiyasi kesimdir.

Demak, biz aniq ayta olamizki, yuqorida so'z prinsiplari to'g'ri tartibda qo'yilgan: ma'no (1), forma (2) va vazifa oxirgi.

So'z turkumlari ham morfologik, ham sintaktik xususiyatlarga ega.

⁴ B.Ilyish "The structure of Modern English". Leningrad, 1971. 27-bet.

1. Ot (noun) yoki substantivning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- (1) Ma'no: predmet (thingness). Bu kabi otlar nafaqat chair yoki iron, balki beauty, peace, necessity, journey kabilarni narsa yoki ob'yekt sifatida namoyon etadi.
- (2) Forma. Otlar son kategoriyasiga ega, garchi ayrim otlar faqat birlik yoki ko'plik formalariga ega. Bundan tashqari ular kelishik kategoriyasiga ham egadir.
- (3) Funksiya (vazifa): a) so'zlar birikib so'z birikmalarini tashkil etadi. Ot+sifat ----large room, times immemorial;

Ot+ot ----- iron bar,

Ot+ot (qaratqich kelishigida)---- father's room,

Ot+fe'l ---- children play, play games,

Ot+ravish --- the man there, the then president,

Ot+predlog --- house of rest,

Ot+artikl --- the room, a room.

b) gapdagi vazifasi. Ot gapning egasi, kesimi, to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol bo'lib kelishi mumkin.

2.Sifat. Sifatning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

(1) Ma'no. Belgi.

(2) Forma.. Hozirgi zamon ingliz tilida ular o'zgarmaydilar. Ayrim sifatlar darajalarga ega ___long, loner, longest.

(3) Funksiya.

(a) sifat+ot --- large room, times immemorial.

Sifat+ravish --- very large;

Sifat + predlog + noun --- free from danger;

Sifat + fe'l—married young.

(b) gapda sifat aniqlovchi ---- large room yoki kesim --- is large ni ifodalashi mumkin.

3. Olmosh. (1) olmoshlarni alohida so'z turkumiga ajratish biroz qiyinchilik tug'diradi. Aslida ayrim olmoshlariga ega (he, she), boshqalari esa sifat ga o'xshash xususiyatlariga ega (which). Bu esa ayrim olmoshlarni mustaqil so'z turkumi emas, balki ot va sifat o'rtasidagiso'z deb ifodalanishi kerak, deb fikrlashga undadi. Olmoshlarning ma'nosi o'laroq ular narsa yoki belgining nomini bildirmaydi, faqat ularni ko'rsatib qoladi. Masalan, it olmoshipredmetning nomini bildirmaydi. It's--- egalik xususiyatini anglatadi. Whatolmoshies ham predmet, ham belgini anglatishi mumkin.

(2) Formalariga ko'ra olmoshlar har xil turlarga bo'linadi. Ayrimlarison kategoriyasini olsa (this-these), boshqalari esa bo'lmaydi (somebody) . Kelishik kategoriyasi ham hamma olmoshga tegishli emas. (he-him, somebody-somebody's---something).

(3) a) Ayrim olmoshlar (vazifa):

olmosh+fe'l — ~~he~~ speaks, find him;

olmosh + ot — ~~this~~ room.

b) gapda ayrim olmoshlar ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi vazifalarida keladi.

4. Son. Songa ta'rif berish ayrim qiyinchiliklarni tug'diradi.

Sanoq sonlar (Cardinal) (one, two) tartib sonlar (Ordinal) (first, second) dan bir oz farq qiladi.

(1) Ma.no. sonlar son yoki bir necha joyni ifodalaydi.

(2) Forma. Sonlar o'zgarmaydi.

(3) Funksiya.

(a) Birikmalar kabi tartib va sanoq sonlar quyidagilar bilan birikib keladi: son+ot (three rooms, third room) yoki ot+son (soldiers three, George the third);

(b) Gapda son aniqlovchi — ~~three~~ rooms, the third room;

Ega, kesim, va to'ldiruvchini ifodalab keladi:

— ~~three~~ of them came in time, we are seven, I found only four.

5. Stativ so'zlar. Asleep, ablaze, afraid kabi stativ so'zlar sifat nomini beradi deyilsada, ular gapda aniqlovchi vazifasida kelmaydi, belgini ham ifodalamaydi.

(1) Ma'no. Kishi yoki narsaning holatini ifodalaydi.

(2) Stativ so'zlar o'zgarmaydilar.

(3) Funksiya. (a) Stativ so'zlar bog'lovchi fe'l (link verb) bilan keladi.

Ot + stativ — man alive;

Ravish + stativ — fast asleep.

(b) Gapda stativ so'zlar asosan kesim vazifasida keladi — I found him asleep, He fell asleep.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol a man asleep in his chair.

6. Fe'l.

(1) Ma'no. Ish – harakatni bildiruvchi so'z turkumi.

(2) Forma. Fe'l morfologik xususiyatlarga ega: zamon, mayl, nisbat, shaxs va son.

(3) Funksiya.

a) fe'l + ot — children play, play games;

ravish + fe'l — write quickly;

sifat + fe'l — married young.

b) gapda asosan kesim vazifasida keladi.

7. Ravish.

(1) Ma'no. Ravishlarning ma'nosiga ko'ra ularni so'z turkumiga kiritish qiyin kechadi. Albatta ayrim ravishlar payt, o'rin-joyini ifodalaydi (yesterday, here), boshqalari esa belgini ifodalaydi (quickly), yana boshqalari daraja xususiyatiga ega (very). Demak, ular "property of an action or of a property" harakat yokibelgi belgisini bildiradilar.

(2) Forma. Ravishlar o'zgarmaydi, lekin ayrimlari darajalar kategoriyasiga ega (fast, faster, fastest)

(3) Funksiya.

(a) ravish + fe'l → quickly;

Sifat + ravish → very long;

Ot + ravish → the thenpresident;

Birikma + ravish → so out of things.

(b) Gapda ravish hol yoki hol qismi, aniqlovchi bo'lib keladi → from there.

8. Predloglar. Predloglar masalasi juda qizg'in tortishuvlarga sabab bo'ladi. Har ikkala ma'no va sintaktik funksiyalari qarama-raqshiliklar obyekti bo'lib kelmoqda.

(1) Ma'no. Predloglarning ma'nosi ochiqdan ochiq narsa va phenomena o'rtasidagi bog'lanishga borib taqaladi.

(2) Forma. Predloglar o'zgarmaydi.

(3) Funksiya.

a) predloglar frazalarga bog'lanib, ot, sifat, son, stativ so'zlar, fe'l va ravish bilan birikib keladi.

b) gapda predloglar o'zi mustaqil ma'no anglatmaydi. Ular faqat to'ldiruvchi, hol, kesim yoki aniqlovchibilan birikib keladi. Ular kamdan-kam hollarda ega vazifasida keladi . Masalan: There were about a hundred people in the hall.

9. Bog'lovchilar. Bog'lovchilar ham predloglar kabi muammolarga ega bo'lib, lekin ular ko'p e'tiborga molik emas.

(1) Ma'no. Bog'lovchilar narsa va phenomena o'rtasidagi bog'lanishlarni ifodalaydi.

(2) Forma. Bog'lovchilar o'zgarmaydi.

(3) Funksiya.

a) Ular har xil ikki so'zni, frazalarni yokigapning ergashgan qismlarinibog'lab keladi.

b) Gapda ular hech qanday bo'laklarni ifodalamaydi. Ular uyushib kelgan so'zlarni yoki gap bo'laklarini bir-biriga bog'lab keladilar. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, bog'lovchilar predloglar kabi so'zlarnibog'lab keladilar

→ an old man and his son, an old man with his son.

Predlog va bog'lovchilar bir xil talaffuzga va ma'noga ega bo'lishlari mumkin (**before** introducing a noun and **before** introducing a subordinate clause; the same about **after**). Ular o'rtasidagi farqni aniqlash ancha murakkab bo'lganligi uchun ularni bir so'z turkumiga kiritish

ham mumkin. Biroq ular sintaktik funksiyalari o'laroq bir-birlaridan farq qiladilar (before, after, since).

10. Yuklamalar. Yuklamalarga only, solely, exclusively, even (even old people came), just (just turn the handle) kabi so'zlar kiradi.

(1) Ma'no. Yuklamalarning ma'nosini aniqlash juda qiyin. Ular taxminan egalik belgilarga ega.

(2) Forma. Yuklamalar o'zgarmaydi.

(3) Funksiya.

a) Yuklamalar amalda har bir so'z turkumi bilan birikadilar: only three, for advanced students only.

b) Yuklamalar gapda bo'lak bo'lib kelmaydi. Ular gapda so'z yoki birikmaning tashkil qiladigan qismi bo'lib keladilar.

11. Modal so'zlar: as perhaps, possibly, certainly.

(1) Ma'no. Modal so'zlar harakat va reallikni o'zaro bog'laydi.

(2) Forma. Modal so'zlar o'zgarmaydi.

(3) Funksiya. Modal so'zlar kirish so'zlar bo'lib xizmat qiladilar: he will arrive soon, possibly to night.

b) Gapda yakka holda butun bir gapni ifodalashi mumkin: Possibly.

12. His-hayajon so'zlar (Interjection).

(1) Ma'no.

Ular his - hayajonni ifodalaydi: ah, alas. Ayrimlari shovqinni ifodalaydi: Bang.

(2) Forma. His-hayajon so'zlar o'zgarmaydi.

(3) Funksiya. Bu so'zlar o'zlari butun bir gapni ifodalashi mumkin. Alas.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan klassifikatsiya natijasiga ko'ra, so'zlarni "ot", "sifat" kabi so'z turkumlariga kiritish olmaymiz. Chunki so'zlar 19 ta guruhlariga bo'linadilar⁵. Ularni "mustaqil" va "yordamchi" so'z turkumlariga bo'lmadik. Ayrim grammatist olimlar fikriga ko'ra, ularni ikki grammatik kategoriyaga bo'lish mumkin: ayrim so'zlar narsa, harakat nomlarini bildirishsa, boshqalari esa shu so'zlarni bir-biriga biriktirib bog'lab keluvchi so'zlar kategoriyasidir.

The letter is on the table.

The letter is in the table.

Bu gaplarda ikki predmet nomi ya'ni, table va letter so'zlari predloglar yordamida birikib kelayapti. Masalan:

The match was postponed **because** it was raining.

Bu gapda because bog'lovchisi ikki harakat nomini bog'lash orqali ularni biriktirib kelayapti.

⁵ S.S.Fries "The Structure of English", M., 1961

Ko'pchilik olimlar so'z turkumlarini morfologiyaning bir bo'lagi deb qarashadi, lekin shunga qaramay so'z turkumlarini sintaksisga bog'lab o'rganmaslik xato bo'ladi. Bu muammoga turli olimlar turlicha fikr bildirganlar.

Akademik A.A.Shaxmatovning fikricha, so'z turkumlari sintaksisda o'rganilishi kerak⁶. Tilshunos olim B.Ilyish so'z turkumlari nazariyasini ba'zi sintaktik jihatlarini ham o'z ichiga olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb qaraydi⁷. Tilshunos olim E.M.Gordon so'z turkumlariga quyidagicha to'xtalib o'tadi⁸: "Har bir tildagi mavjud so'zlar ma'lum so'z turkumlariga mansub bo'lib, har bir so'z turkumi o'z xususiyatiga ega. So'z turkumlari bir-biridan ma'nosi, formasi va gapdagi funksiyasiga ko'ra farq qiladi".

Butun dunyo tillarida so'z turkumlarining o'zni beqiyosdir. Barcha tillarda so'zlar turkumlarga ajratib o'rganiladi. J.Bo'ronov, M.Bo'ronova,⁹ M.Toshboyevlar tomonidan yozilgan "Ingliz tili grammatikasi"da so'z turkumlari 14 ta deb ko'rsatiladi:

- 1.Ot (Noun)
- 2.Sifat (The Adjective)
- 3.Olmosh (The Pronoun)
- 4.Son (The Numeral)
5. Fe'l (the Verb)
- 6.Ravish (The Adverb)
- 7.Holat kategoriyasi (The category of State)
- 8.Modal so'zlar (The Modal words).
9. Predlog (The Preposition)
10. Yuklama (The Particle)
- 11.Bog'lovchi (The Conjunction)
12. Undov so'zlar (The Interjection)
- 13.Artikl (The Article)
14. Javob so'zlar (The Response Words)¹⁰

M.A.Ganshina esa so'z turkumlarini 13 ta deb ko'rsatadi. Ular quyidagilar:

- 1.Ot
- 2.Sifat
- 3.Olmosh
- 4.Son
5. Fe'l

⁶ A.A.Шхматов "Синтаксис русского языка" М., 1941.

⁷ B.Ilyish "The structure of Modern English". Leningrad, 1971

⁸ E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" М., 1974

⁹ Bo'ronov J.B., M.Bo'ronova, M.Toshboyev. "Ingliz tili Grammatikasi" T.1978, 5-bet.

¹⁰ Ganshina M.A. va Voselevskaya, "English Grammar", Higher School Publish House, M.,1964.

- 6.Ravish
7. Predlog
8. Bog'lovchi
9. Artikl
10. Yuklama
11. Modal so'zlar
- 12.Tasdiq va inkoq gaplar
13. Undov so'zlar

V.L.Kaushanskayaning “A Grammar of English language” asarida so'z turkumlari quyidagilarga ajratiladi:

- 1.Ot
- 2.Sifat
- 3.Olmosh
- 4.Son
5. Fe'l
- 6.Ravish
- 7.Holat kategoriyasi
- 8.Modal so'zlar
9. Undov so'zlar

Yordamchi so'z turkumlari:

10. Predlog
- 11.Bog'lovchi
12. Yuklama
13. Artikl

Tilshunos olimlar K.N.Kachalova, E.E.Izrailevich¹¹lar so'zlarni quyidagi belgilariga ko'ra so'z turkumlariga ajratishadi:

- 1) ma'nosiga ko'ra
- 2) gapdagi vazifasiga ko'ra
- 3) so'z yasash formasiga ko'ra
- 4) so'z o'zgarish formasiga ko'ra

Ingliz tilida so'z yasaliş formasi va so'z o'zgarishi bir so'z turkumini boshqa so'z turkumidan ajratishda unchalik ahamiyat kasb etmaydi.Tilshunos olim K.N.Kachalova¹² so'z turkumlarini quyidagi so'z turkumlariga ajratadi:

¹¹ K.N.Качалова, Е.Е.Израилович “ Практическая грамматика английского языка” М., 1996.

¹² K.N.Качалова, Е.Е.Израилович “ Практическая грамматика английского языка” М., 1996.

- 1) ot
- 2) sifat
- 3) son
- 4) olmosh
- 5) fe'l
- 6) ravish
- 7) predlog
- 8) bog'lovchi
- 9) undalma

K.N.Kachalova ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravishni ularning gapdagi predmetni, belgin, ish-harakatni va gapda ma'lum bir sintaktik funktsiyani bajarganligi uchun mustaqil so'z turkumlariga ajratadi. Predlog, bog'lovchi va artiklni yordamchi so'z turkumlariga ajratadi. Undalmani Kachalova mustaqil so'z turkumiga ham, yordamchi so'z turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular gapda hech qanday sintaktik funktsiyani bajarmaydi.

Bundan tashqari tilshunos olim E.M.Gordon¹³ so'zlarni 3 asosiy guruhga bo'ladi: 1) mustaqil so'zlar 2) yordamchi so'zlar 3) mustaqil elementlar.

Mustaqil so'zlarning aniq leksik ma'nosi bo'lib, ular gapda mustaqil funktsiyani bajaradilar. Demak, ular gapda gapning bosh bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Mustaqil so'zlarga fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar kiradi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi so'zlar gapda biror bir funktsiyani bajarmaydi. Lekin ular gapda so'zning ma'nosini aniqlaydi. Masalan, "the" yoki "a" artikllarini olib qaraydigan bo'lsak

A table	the table
stol	stol
(noma'lum)	(ma'lum)

Ingliz tilida artikl, yuklama, predlog va bog'lovchilar yordamchi so'z turkumlariga kiradi. Mustaqil elementlar turli ma'nolari bilan xarakterlanadi. Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik funktsiyani bajarmaydi. Masalan, He **certainly** knows all about it. U **albatta** buni biladi.

Mustaqil elementlar ba'zan bitta gapni tashkil qilishi ham mumkin. Masalan, Yes. No. Alas. Mustaqil elementlarga E.M.Gordon¹⁴ quyidagilarni kiritadi:

1. Modal so'zlar (Modal words)

¹³ E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

¹⁴ E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

2.His-hayajon so'zlar (Exclamatory words)

3.Tasdiq va inkor so'zlar.

Har bir konkret tilda mavjud so'zlar ma'lum guruhlariga bo'lingan bo'lib, ular so'z turkumlari deyiladi. Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillaridagi so'z turkumlari klassifikatsiyasi so'zlarning quyidagi xususiyatlariga kora, ya'ni

- a) leksik va leksik-grammatik ma'nolariga ko'ra;
- b) morfologik formalarning ma'lum bir guruhlariga kiruvchi so'zlar uchun umumiylikiga ko'ra;
- c) so'zlarning gapdagi roliga ko'ra aniqlanadi.

So'zlarni guruhlariga bo'lishda ularning ham leksik, ham grammatik formalari hisobga olinganligi uchun so'z turkumlari so'zlarning leksik grammatik razryadlari ham deyiladi. Masalan, ot turkumiga kiruvchi so'zlarning hammasi predmet nomini bildirib keladi. Ammo shuni qayd etish kerakki, hamma oylarning predmet bo'lishi shart emas. Ayrim so'zlar predmetni bildirmasada, baribir predmet o'rnida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi love-sevgi, joy-quvonch o'zbek tilidagi do'stlik, baxt va hakovzalardir. Har bir so'z turkumiga mansub so'zlarning o'ziga xos morfologik formalari bo'lib, u formalar morfologik paradikmalarni tashkil qiladi. Masalan ingliz tilidagi otga qo'shilgan -s qoshimchasi son kategoriyasini, fe'dagi -ed qo'shimchasiesa zamon kategoriyasini anglatadi. Bundan tashqari, har bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlar gapda ma'lum bir sintaktik vazifani ham bajarib keladi. Masalan, ot asosan ega, to'ldiruvchi, kesimning predikativqismi vazifasida, sifat aniqlovchi, kesimning predikativ qismi fazifasida, fe'l asosan gapning kesimi, ravish hol vazifasida keladi. Ikki va undan ortiq so'z turkumi gapda bir xil vazifani bajarib kelishi mumkin. bu hozirgi ingliz tilidagi ot va fe'lda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Hozirgi ingliz tili morfologik ko'rsatkichga boy ema. Shuning uchun ham bir so'z turkumining formasi o'zining boshlang'ich formasi yoki o'z paradigmasining dastlabki formasida kelganida ikkinchi so'z turkumidan farq qilmasligi mumkin. Masalan: water, telephone, mistake so'zlari bir vaqtning o'zida ham ot, ham fe'l vazifasida keladi. So'z turkumlarining bir qismi yuqorida ko'rsatib o'tilgan har uchala xususiyatga ham ega bo'lishi, ayrimlari esa leksik ma'no va morfologik formaga ega bo'lsada, gapda mustaqil gap sifatida ishlatilmasligi mumkin. Shu munosabat bilan so'z turkumlari ikki qismga bo'linadi:

1. Mustaqil so'z turkumlari
2. Yordamchi so'z turkumlari.

Mustaqil so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar leksik nuqtai nazardan mustaqil ma'noni ifodalab, boshqa so'zlar yordamisiz ham predmetlarni atab, miqdorini, belgisini qay darajada bajarilishini so'zlovchining o'z nutqi mazmuniga bo'lgan aloqasini ko'rsatadi. Mustaqil so'z

turkumlari grammatik tomondan ma'lum grammatik kategoriyalar bilan bog'liq bo'lgan paradigmatik formalariga ega bo'lib, gapda ma'lum bir vazifani bajarib kelishi mumkin.

Yordamchi so'z turkumlariga gapda mustaqil maxsus ma'no anglatmay, mustaqil so'zlarni bir-biri bilan grammatik aloqaga kiritib, ular o'rtasidagi semantik, sintaktik munosabatni ko'rsatuvchi gap bo'lagi vazifasida qo'llanilmaydigan so'z turkumlariga kiradi. Yordamchi so'z turkumlariga gap tarkibida urg'u tushmaydi. Ingliz tilida yordamchi sozlarga asosan predloglar va bog'lovchilar, o'zbek tilida esa ko'makchi va bog'lovchilar kiradi.

Ot, sifat, olmoshlarning bir qismi ayrim ravishlar va fe'llar o'rganuvchi so'z turkumlarini qolganlari esa, o'zgarmaydigan so'z turkumlarini tashkil qiladi.

So'z turkumlari anglatgan leksik grammatik ma'nolari morfologik formasi yoki ma'lum paradigma yasashi, boshqa so'zlar bilan birika olishi, gapdagi vazifasi, ma'lum suffikslar vositasida yasalishi yoki derivatsion kontrastiga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

1. Leksik grammatik ma'no deganda ma'lum so'z turkumiga kiritilgan har bir so'zning ham alohida ifodalagan konkret nominativ ma'nosi, ham umumlashgan grammatik ma'nosi tushuniladi. *book* popular, *government*, *peace* kabi so'zlarning har biri alohida lug'aviy ma'noni anglatadi. Shu bilan birga ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan predmetlik ma'nosi mavjud. Ko'rsatilgan har ikkala ma'no so'z turkumlarining asosiy ma'zonlaridan biri hisoblanadi.

2. Morfologik forma. So'zlarning kategorial paradigmatik formalari bo'lib, grammatik ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi. Hozirgi ingliz tilida morfologik yoki kengroq qilib aytganda grammatik forma yo sintetik, yo analitik tarzda ifodalanishi mumkin:

a) sintetik forma so'z shaklini yasovchi grammatik formalarini qo'shish yoki ichki fleksiya vositasida yasaladi. Masalan:

He works, *U ishlaydi*. *He worked*. *U ishladi*.

He knows many languages. *U ko'p tillarni biladi*.

Yuqoridagi gaplarda grammatik forma siffiksatsiya yordamida yasalgan, chunki grammatik formalar hisoblanuvchi *-s* (shaxs, son va zamon qo'shimchalari), *-ed* (o'tgan zamon formasini yasovchi qoshimcha), *-(e)s* (ko'plik son qo'shimchasi) so'z negiziga to'g'ridan to'g'ri agglutinatsiya usulida qo'shilyapti. Ichki fleksiya so'zlarning o'zagidagi unilarni o'zgartirish vositasida so'z formalari yoki grammatik kategoriyalar yasashdir. Masalan, *I wrote a letter to my friend*. (Men do'stinga xat yozdim). *My sister has very beautiful teeth*. (Singlimning tishlari juda chiroyli) gaplarida *wrote* (yozdim) fe'lining ichki fleksiya (ablaut) vositasida yasalgan. Hozirgi ingliz tilida ichki fleksiya juda keng qo'llanmasada, hamon o'z ifodasini yo'qotgani yo'q. Sintetik formalar qatorini ma'lum o'rinni turli so'z turkumlari uchun xos bo'lgan suppletiv formalar deb yuritiluvchi maxsus Grammatik formalar egallaydi. Suppletivizm ma'lum Grammatik kategoriyani turli o'zaklardan yasalgan formalar vositasida ifoda etilishidir. Masalan,

I – we (men - biz)

He, she, it – they (u - ular)

Good – better – best

(yaxshi-yaxshiroq – eng yaxshi)

“To go “ fe’lining shakllari:

To go – went – gone

(ketmoq - ketdi)

b) Analitik forma ikki va undan ortiq so’zlarning o’zaro qo’shilishi vositasida yasalib, ulardan biri o’z leksik ma’nosini to’la saqlab qoladi. Qolganlari esa, faqat Grammatik ma’nolarni anglatish uchungina ishlatiladi.

Har bir analitik formada ham leksik, ham Grammatik formalar mavjud bolib, leksik element grammatik ma’no bilan qisman bog’liq bo’ladi. Masalan, perfekt kategoriyasini ifodalovchi analitik formada to have ko’makchi fe’li grammatik kategoriyani ifodalasa, asosiy fe’l leksik ma’noni va qisman grammatik ma’noni ifodalaydi. 3.Boshqa so’zlar bilan birikish deganda har bir so’z turkumining bir va ikki tomonlama ya’ni yo ong, yo chap tomondagi so’zlar bilan birika olish imkoniyati tushuniladi. 4.So’zlarning gapdagi roli so’z turkumlarining o’ziga xos xususiyatini aniqlashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayrim so’z turkumlari gapda gap bo’lagi vazofasida kelsa, ayrimlari bu vazifani bajara olmaydi.Shunga binoan, so’z turkumlari mustaqil so’z turkumlari (National parts of speech) va yordamchi so’z turkumlari (Structural parts of spech) bo’linadi.Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l, holat kategoriyasi va boshqalar mustaqil so’z turkumlari, predlog, bog’lovchi, artikl, ko’makchi va boshqalar yordamchi so’z turkumlari hisoblanadi.

5.Derevatsion konkret so’z turkumlarining ma’lum so’z yasovchi affikslar bilan birga ishlatilishiga bog’liq. Ma’lumki, yangi so’z yasalganda faqat yangi leksik birlik yasabgina qolmay, bir vaqtning o’zida yangi so’z turkumi ham yasaladi. Predlog (the Preposion) U.H.Hoshimovning ”Ingliz tili grammatikasining normativ kursi ” asarida mustaqil ma’no anglatmay, ”ot” va olmosh va boshqa so’z turkumlarining ma’nolarini to’ldirib, ularning birlariga, shuningdek ma’lum hodisaga ega bo’lgan munosabatini bildiruvchi yordamchi so’z turkumlari predloglar deyiladi¹⁵.

¹⁵ Hoshimov U.H., “Ingliz tili rammatikasi” T., 1968

1.2 Bog'lovchilar haqida umumiy tushuncha

Hozirgi zamon ingliz tilida bog'lovchilar yordamchi so'z turkumlariga kirsada, lekin gap strukturasida katta orin tutadi. bog'lovchilar bu yordamchi so'z turkumi bo'lib, gap bo'laklarini yoki qo'shma gapning qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladi. bog'lovchilar gap bolaklari va qo'shma gapning sodda gapning teng qismlari orasidagi turlicha aloqalarni grammatik gunsabatni ko'rsatadi. Gap bo'laklari va gaplar orasidagi grammatik munosabat bog'lovchilar yordamida ifodalansa ham, bog'lovchilarning o'zi bu so'zlarning grammatik formasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi, ular bilan birlashmaydi. Bog'lovchilar tuzilishi jihatidan quyidagi gruppalariga bo'linadi:

- a) sodda bog'lovchilar (Simple Conjunctions): and, but, as, or, nor, after, till, that, so, for, hence, yet, since, when, if, lest, while, whether.
- b) yasama bog'lovchilar (Derivative Conjunctions): untill, unless, supposing, seeing, provided, because, once, directly, before, consequently.
- c) qo'shma bog'lovchilar (Compound Conjunctions): however, wherever, although, whereas, nevertheless, therefore,
- d) murakkab bog'lovchilar (Composite Conjunctions): as well as, both ... and, either... or, neither ... nor, whether ... or, as ... as, as ... so, so ... as, so ... that, rather ... than, such ... as, in order ... that, even though, even if, not so ... as, no sooner ... than, not only ... but, the ... the, no matter ..., who (when), such ... that, but that, or else.

Yuqorida, bog'lovchilarga berilgan ta'rifga ko'ra, birinchi navbatda predlog bilan bog'lovchilar o'rtasidagi farqni anglay olishimiz lozim¹⁶. Ayrim olimlar esa, bog'lovchilar faqatgina so'zlarni (yoki gap bo'laklarini) bir-biriga bog'laydi, va bog'lovchilar faqat gap strukturasining ma'no anglatishga yordam beradi, bog'lovchining o'zi hech qanday ma'noga ega emas, degan fikrni ilgari surishadi. Bu fikrga qarama qarshi rus tilshunosi B.A.Ilysh shunday misollar keltiradi:

He came **because** it was late. He came **though** it was late.

Bu gaplardagi **because** va **though** bog'lovchilari ikki ekstralingvistik hodisalar o'rtasidagi aniq har xil manodagi bog'liqlikni yaqqol ko'rsatib beradi: his coming and its being late. Bu gaplardagi kauzal (sabab) bog'lanish tilning tashqi tomonidan mavjud va shu bilan birga ikkinchi gapda konsessiv (to'siqsizlik) bog'lanish ifoda etiladi. Demak, keltirilgan ikkala misolning grammatik strukturasida hech qanday farq yo'q: farqlanish esa bu misollarning

¹⁶ B.A.Ilysh, The Structure of Modern English“ p.157

ma'nosida, ya'ni bog'lovchilarning ma'nosidadir. Qiyidagi misollarda ham bu kabi farqni kuzatish mumkin:

We will come to see you before he comes back, va

We will come to see you after he comes back.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, har bir bog'lovchi o'z ma'nosiga ega, shu bilan birga ayrim bog'lanishni ifoda etadi, yoki ikki ekstralingvistik hodisalar o'rtasida paydo bo'ladi. Shunday qilib, bog'lovchi va predlog o'rtasidagi farqni aniqlaymiz. Predloglar haqida so'z yuritganimizda, ko'p hollarda ular ozidan oldin keladigan sozma'nosiga ta'sir korsatadilar: misol uchun, "depend" fe'li faqatgina "on" yoki "upon", "characteristic" sifat so'zi "of" predlogi bilan kelganda to'liq bir ma'noga ega bo'la oladi, xolos. Bu misollar ko'rinib turibdiki, predloglar yakka holda hech qanday ma'no anglatmaydi. bog'lovchilarning gapda ishlatilishidan ma'nosi saqlanib qoladi va mustaqil bo'ladi.

Bog'lovchilarning sintaktik funksiyalarini aniqlashda biz so'z birikmalaridagi va gapdagi o'rni va ma'nolarini aniqlab olishimiz kerak. So'z va so'z birikmalarda bog'lovchilar so'z va frazani bog'laydi. Bular teng bog'lovchilar bo'lishi mumkin, kamdan kam hollarda biriktiruv bog'lovchilar bo'lishi mumkin. Gapda esa bog'lovchilar ikki gap bo'laklarini birlashtiradi.

Bog'lovchilar ba'zida bog'lovchilik vazifasida ekas, balki istak-xohishni anglatuvchi so'zlarni ifoda etishi mumkin. Masalan:

-If only she play the question loud enough to reach the ears of this Paul Steitler. (Buechner)-
Qaniydi, u bu savolni barilla ayta olsaydi va Pol Steytlerga eshitilsa.

Bu misoldan ko'rinib turibdiki, if bog'lovchil emas, -di yuklamasini ham ifoda etadi.

1.3 Bog'lovchilarning strukturasiga ko'ra turlari

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchi va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

Teng bog'lovchilar (Coordinating Conjunction) o'z navbatida quyidagi kichik guruhlariga bo'linadi:

a) Biriktiruvchi bog'lovchilar (Copulative Conjunctions): and, as well as, both ... and, not only ... but, neither ... nor, the ... the .

She dances very hard **and** you'll be the fresher. (HEH24)

U so'r raqsga tushadi va sen undan zavq olasan.

You must ask Edmund **and** Lilian they'll be back in half an hour. (ASS79).

Siz Edmund va liliannad ularning yarim soatdan keyin qaytish-qaytmasliklarini so'rashingiz kerak.

You are **neither** a friend **nor** a servant. (PAP56)

Siz na sodiq do'stsiz, na ishonchli yordamchi.

b) Ayiruvchi bog'lovchilar (Disjunctive Conjunction): or, either ... or, or else.

She ought to marry an American **or** a Portuguese. (HEH32)

U yo Amerikalikka, yo Ptugaliyalikka turmushga chiqishikerak.

Does I mean that they 've been left well off, **or** that they wish to be under no obligations?
(SMM80)

Demoqchimanki, ular tinchgina chiqib ketishdimi, yo o'z burchlarini bajarishmoqchi emasm?

His companions had **either** finished their tea **or** were indifferent to their privilege(PAP)

Uning sheriklari yo choylarini bemalol ichib tugatishdi, yo o'zlari shunchalik haddan ziyod beparvo va loqayd.

I can't make head **or** tail of this, said DrLivesay. (WWD56)

Men buning boshi-oxirini topa olmayman, dedi Livesey.

I had **either** fallen asleep **or** was on the point of doing so when a heavy man sat down with rather a clash close by (SMM108).

c) Zidlovchi bog'lovchi (Adversative Conjunction): but, still, yet, while, where as, as yet.

The girl spoke to Ralph smiling, **while** she still help up the terrier. (HEH)

Qizcha terierga yordamlasha turib, Ralf bilan jilmaygancha gaplashdi.

Once I stepped out myself into the road, **but** he immediately called me back(ACS45).

Men bir kuni endigina yo'lga tushgandim, ortimdan kimdir chaqirib qoldi.

I could hear nothing **but** a low gabbling. (SMM58)

Men hech narsanieshitmadim, lekin nimanidir yulib olgandek bo'ldi.

I am in the most magnificent hearth and spirits, eating like a bull, sleeping like a tree, **yet** I shall not enjoy a moment till I hear my old tarpaulins tramping round the capstan. (MAB74)

d) Sabab yoki natijani ifodalovchi bog'lovchilar (Causal and Resultative Conjunctins): for, so, hence.

He appeal seemed to produce some affect **for** two of the fellows began to look and there among the lumber. (MAB108)

So a big pigeon pie was brought in and put on a side table, and I made a hearty supper, for I was as hunger as a hawk. (SMM69)

Shunday qilib kaptar somsa olib kirshdi va stol ustisa qo'yishdi, men itdek ochligim sababli uni paqqos tushirdim.

Hence there were still faither men on board (ACS57)

Qayiqda hamon ishonchlikishilar bor edi.

So he kept talking as a ran, neither expecting nor receiving any answer. (SMM89)

2.Ergashtiruvchi bog'lovchilar (Subordinating Conjunctions).

Ergashtiruvchi bog'lovchilar ko'pincha ega, kesim, aniqlovchi va hol ergash gaplarni bosh gapga bog'lashga xizmat qiladi. Bundan tashqari ular har xil konstruksiyalarni ham o'zaro bog'lashi mumkin.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar ega, kesim va ob'ektiv konstruksiyalarni bog'lab keluvchi that, if, whether kabi bog'lovchilarga bo'linadi:

It was the crew **that** troubled me (MAB114).

Meni tashvishga slogan narsa ekipaj edi.

He showed me in a moment **that** they were just the sort of fresh water swabs we had to fear in an adventure of impotence.

I know of my own knowledge **that** he was a banker account which has never been overdrawn. (FSS68)

Whether he was there then is still enigma. (MAB108)

Uning u yerda bor-yo'qligi hanuz noma'lum.

Our attitude simple is **that** facts are facts. (HEH134)

Bizningbikrimiz ham shu, axir ma'lumot bu ma'lumotda.

I wonder **if** he has it (LWF233)

Unda buning borligidan hayratdaman.

Adverbial (hol) konstruksiyalarni bog'lab keluvchi bog'lovchilar quyidagi gruppalariga bo'linadi:

a) joyni ifodalovchi bog'lovchilar (Conjunctions of place): where, wherever .

In the meantime, we could never make out **where** he got the drink. (MAB132)

Biz shu kungacha uning qayerdan ichib kelayotganligini bila olmadik.

His skin, **wherever** it was exposed, was burnt by the sun, even his lips were black. (LWF120)

Portlash bo'lgan joyda uning terisi kuygan, hatto lablari ham qorayib ketgan edi.

Wherever a man is, say I, a man can do for himself. (ACS142)

Yigit kishi qayerda bo'lmasin, o'zini uddalay olishi kerak.

b) vaqtni ifodalovchi bog'lovchilar (Conjunction of Time): after, since, when, before, until, till, as long as, while, as soon as, once now that, not long.

When we came on deck the men had begun already to take out powder ... (MAB66).

Biz stol yoniga kelganimizda kishilar allaqachon kukunlarni olib bo'lishgan edi.

I'm fifty, mark you: **once** you back from this cruise, I set up gentleman in earnest. (LWF108)

When he was twelve years old I myself was in love with him. (MAB255)

Men uni yoqtirib qolganimda u o'n ikki yoshda edi.

The girl spoke to Ralph smiling, while she still held up the terror. (LWF136)

Qiz terriorga yordamlasha turib Ralf bilan jilmaysancha suhbatlashdi.

Rosier lingered a moment till Pancy came in right on the aim of her cavalry (PAP104).

Rozer kavalyer yetib kelgunicha bir oz muddat kutib qoldi.

c) maqsadni ifodalovchi bog'lovchilar (Conjunction of Purpose): that, so that, in order that, lest, for fear that. Bu bog'lovchilardan keyin ko'proq may, might, shall, should modal fe'llari ishlatiladi.

He had found her a boy as an apprentice also, **so that** she should not want help while I was gone. (ACS233)

U uning o'g'lining ham shogirdlikka tushganini bilgach, men yo'q vaqtimda unga yordamlashib turishni xohlamadi.

He started early **lest** he should miss the train. (PAP108)

U poyezddan qolib ketmaslik uchun ertachiroq yo'lga chiqdi.

Wounds sometimes must be opened **in order that** they may be healed.(ACS244)

Yaralar tuzalishi uchun ba'zan ularni ochib ko'rish kerak.

d) natija bog'lovchilari (Conjunctions of Result): that, so ... that.

He is **so** weak **that** he can hardly move (MAB130)

U zo'rg'a yuradigan darajada darmonsiz edi.

e) To'siqsizlikni ifodalovchi bog'lovchilar (Conjunctions of concession): though, although, even if, even though, no matter.

He knew the passage like the palm of his hand, and **though**, the man in the chains got everywhere more water than was down in the chart, John never hesitated once. (R.Steverson)

